



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

## YUNUS O‘G‘UZ ASARLARIDA TARIX VA FALSAFA UYG‘UNLIGI

Gulnoz Sattorova<sup>1</sup>

<sup>1</sup>O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Tarix, tarixiylik tamoyili, til, madaniyat, otabelklar, Alamut, Bosh Dada, din, falsafa.	Mazkur maqolada ozarbayjon yozuvchisi Yunus O‘g‘uzning tarixiy asarlari tahlilga tortilgan bo‘lib, tarixiy badiiy asar yaratishda yozuvchi mehnati tarixchi olimnikiga qaraganda mas‘uliyatliroq ekanligi ta‘kidlanadi. Agar tarixchini, asosan, muhim tarixiy voqeaning mohiyati, mazmuni qiziqтира, ijodkor har bir kichik detalning haqqoniyligi borasida ham javobgar. Tarixchi bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar, ko‘rganlarini, bilganlarini xolis, haqqoniylik bilan faktik hujjatlar asosida aks ettiradi. Ijodkor esa tarixiy faktlarga tayansa ham, baribir, asarda yangi bir olam yaratadi, bu olam ijodkor badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lib, unga o‘z bahosini beradi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
История, принцип историзма, язык, культура, атабеки, Аламут, Бош Дада, религия, философия.	В данной статье проанализированы исторические произведения азербайджанского писателя Юнуса Огуза. Автор констатирует, что труд писателя по созданию исторического произведения более ответственен, чем труд историка. Если историка главным образом интересует суть и содержание важного исторического события, то писатель несет ответственность за достоверность мельчайшей детали. Историк беспристрастно и правдиво на основе фактических документов рассказывает о прошедших событиях, которые он видел или знает. А писатель, даже опираясь на исторические факты, все равно открывает в своём произведении новый мир, который является продуктом художественного мышления и личной оценки автора.
KEY WORDS	ABSTRACT
History, principle of historicity, language, culture, atabeks, Alamut, Bosh Dada, religion, philosophy.	This article analyzes the historical works of the Azerbaijani writer Yunus Oguz. The author states that the work of a writer in creating a historical work is more responsible than the work of a historian. If the historian is mainly interested in the essence and content of an important historical event, then the writer is responsible for the accuracy of the smallest detail. The historian tells impartially and truthfully, based on factual documents, about past events that he has seen or knows. And the writer, even relying on historical facts, still discovers a new world in his work, which is the product of artistic thinking and personal assessment of the author.

**Kirish.** Tarixiy voqea-hodisalarni tasvirlash yozuvchidan katta mahorat talab etadi. Haqqoniylik, izchillik, voqelikni hujjat va manbalar asosida tasvirlash yozuvchi oldiga qo‘yilgan asosiy talablardan biridir. Ammo tarixchilar bilan ijodkorlarning tarixiy fakt va materiallarga munosabatlari turlicha bo‘lishi tabiiy.

Asarlari kitobxonlar orasida qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qilayotgan, o‘zbek xalqining sevimli yozuvchilari qatoridan joy olgan ijodk orlardan biri

taniqli ozarbayjon yozuvchisi Yunus O‘g‘uzdir. Uning 40 dan ziyod asari 20 dan oshiq mamlakatda nashr qilingani adabiyot ixlosmanlariga yaxshi ma‘lum. Xususan, adibning “Attila”, “Nodirshoh”, “Shoh Tahmosib”, “Turk tarixiga yangicha nazar”, “Qadimgi Onado‘li va Ozarbayjon turklari” kabi asarlari muallifga shuhrat keltirgan. U nafaqat Ozarbayjon, balki turk olamida e’tirof qozonganini alohida ta‘kidlash kerak.


**Tadqiqot metodologiyasi.** Mavzuni o‘rganishda adabiyotshunoslikda keng qo‘llanadigan tarixiy-qiyosiy, tarixiy-madaniy, mifopoetik, kontekstual, germenevtik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mavzuni yoritishda kuzatish va yozuvchi bilan intervyu kabi usullar ham qo‘llandi.

**Natijalar.** Yunus O‘g‘uzning “Amir Temur”, “Malika va jodugar”, “Sulton Alp Arslon” asarlari allaqachon o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish. “Otabek Eldengiz” esa yozuvchi Yunus O‘g‘uzning o‘zbek tilida chop etilgan to‘rtinchi tarixiy romanidir. Yozuvchi tarixiy mavzuga ko‘p murojaat qilishining sababini quyidagicha izohlaydi: “Hozirga qadar turkiy xalqlar tarixiga oid bir qator romanlarim chop etildi. Tarixiy mavzuga ko‘p murojaat qilishimning boisi bor: asarlarim orqali turkiy xalqlarning dunyo tamaddunidagi beqiyos o‘rnini ko‘rsatib berishni xohlayman”.

Darhaqiqat, adibning asarlari, asosan, tarixiy mavzularda. “Amir Temur” romani bugungacha o‘zbek sohibqironi haqida yozilgan asarlarning eng saralaridan deya e‘tirof etildi. Romanda buyuk sarkarda Amir Temur hayotining birinchi yarmi tasvirlanadi va uning Hindistonga yurishi bilan yakunlanadi. Asarda Amir Temurning shaxsi, u olib borgan siyosat, sarkardalik taktikasi aniq faktik materiallar asosida ko‘rsatib berilgan. Asar etnografik materiallar va tarixiy manbalarga boy.

Yozuvchining o‘zi asar haqida shunday deydi: “Boshqa turkiy millatlar qatori o‘zbek xalqi ham dunyo sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan, buyuk tarix yaratgan. Men o‘zbeklarning tarixini o‘z tarixim deb bilaman. Ulug‘ sarkarda va hukmdor Amir Temur haqidagi romanim o‘zbek xalqining shonli tarixiga ehtiromim ifodasidir”. Asarda Amir Temur turk olamining so‘nggi imperatori sifatida nafaqat Markaziy Osiyo yoki Usmoniylar imperiyasi mamlakatlari, balki

Rossiya va Yevropa uchun ahamiyatli bir shaxs sifatida tasvirlanadi. Asarning muvaffaqiyati shundaki, muallif Amir Temurni bo‘yamasdan, kamchiliklari va oliyjanob insoniy sifatlari bilan tasvirlashga urinadi.



“Malika va jodugar” romanida esa Ozarbayjon tarixining eng murakkab pallasini – Safaviylar davlati inqiroziga oid voqealar qalamga olingan. Muallif Mozandaron malikasi Xayrinisoning kechmishi orqali safaviylar sulolasining inqirozi, saroy fitnalari, adolat va e‘tiqod yo‘lidagi kurashlarni ochib bergan. Asarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimani mahorat bilan uyg‘unlashtira olgan.

Yunus O‘g‘uz asalariga e‘tibor bersangiz tarixiy shaxslar va imperatorlar uning bosh



www.isft.uz

“ISFT” ILMIY-USLUBIY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

qahramonlari. Ularning hayoti juda qiziqdir, chunki ular u yoki bu xalqning taqdirini hal etib kelgan, ularni yo‘q qilib yuborishlari mumkin bo‘lgan shaxslardir.

Adibning o‘zbek tiliga tarjima qilingan navbatdagi asari “Otabek Eldengiz” romanidir. Asar Shamsiddin Eldengiz va uning otabelklar davlatiga asos solganligi voqealari asosiga qurilgan. Asarda barcha turkiy xalqlar uchun qadriyat sanalib kelingan, ammo bugungi kunda unutilayotgan milliy qadriyatlar, o‘tmish va kelajak o‘rtasidagi uzviylikni ta‘minlovchi urf-odat va an‘analar va tarixning bizga ma‘lum va no‘malum qirralari qalamga olinadi.

Asarda 1118-yildan 187 yilgacha Ozarbayjonda bo‘lgan tarixiy voqealar asos qilib olingan. Avvalo, roman o‘z kompozitsion xususiyati bilan o‘quvchi diqqatini tortadi. Asar qadim folklor asarlaridagi hikoya ichida hikoya usulida yozilgan. Unda hikoyachi sifatida Bosh Dada obrazi berilib, bu obzaz mantiqiy asos sifatida ota, o‘g‘il, nevara, evara va duvara kabi obrazlarni o‘z atrofida mujassamlashtiradi. Bosh Dada muallif obrazi bo‘lib, unga adibning tarix, falsafa, islom ilmi, hayotiy qadriyatlar haqidagi qarashlari singdirilgan. Asar Darbanddagi qul bozori voqealari bilan boshlanib, muallif bunga ham alohida falsafiy ma‘no yuklaydi. Aslida hayotning o‘zi bir BOZOR. Bozorda kim nima oladi, qancha oladi, qanday oladi bu o‘ziga xos falsafa. Qul bozoriga kelgan Abu Tinctosh asarda Olloh tomonidan inoyat qilingan umr davomida har kimning hayot falsafasini yaratishi o‘z qo‘lida ekanligini anglatuvchi vosita sifatida beriladi. Asar bosh qahramoni bola Shamsiddinning 1136-yilda davlatchilikka asos solib, Otabek Eldengiz darajasiga bo‘lgan davri tarixiy faktlar asosida badiiy talqin qilinib, musulmonlar o‘rtasidagi urush va nizolar qalamga olinadi. Mavjud ijtimoiy tuzumning madaniyat va san‘atning to‘xtab

qolishiga sabab bo‘lganligi, Saljuqiylar davlatining parokanda bo‘lishi asarda aniq faktlar asosida tasvirlanadi. Mo‘g‘ullar bosqini davridagi xalqning og‘ir ahvolini yumshatish o‘rniga turkiy sultonlarning o‘zaro toj-taxt talashlari, Alamut qal‘asidagi Hasan Sabboh asos solgan hashshoshiylar harakati, musulmonlar o‘rtasidagi nizolar, mo‘g‘ullar istilosi kabi hodisalarning hech biri yozuvchi nazaridan chetda qolmagan.

Yunus O‘g‘uzning bu asarni yaratishdagi mahorati shundaki, u voqealarni donishmand Bosh Dada tafakkuri orqali bayon qiladi. Bosh Dada o‘quvchi ko‘z o‘ngida faylasuf, dinshunos, tarixshunos, tilshunos qiyofasida gavdalanadi. Uning eng buyuk orzusi avlodlarga kimligi haqidagi haqiqatni anglatish. Bu haqiqatni anglash uchun esa inson yetti avlodini bilishi kerak. Bosh Dada xarakterini ochish uchun evara obrazi beriladi. Evaraning tarixga bo‘lgan qiziqishlari, uning bobosiga bergan savollari asarda ochqich vazifasini o‘taydi. Berilgan savollarning barchasi mantiqiy va davomli. Asarda botin va botil ilmi haqida so‘z boradi. Asl mantiq ana shu ikki so‘zning ma‘nosini anglashdan boshlanadi. Botin va botil ilmlarini evaraga anglatishda Qur‘onga murojaat qilib, Muso alayhissalom va hazrati Xizr hikoyasidan o‘rinli foydalanadi. Bir qarashda biroz sodda, mantiqan murakkab bo‘lgan evara obrazi Shamsiddin Eldengizning yoshligi ekanligini anglash mumkin. O‘zlarini botiniylar deb atagan hashshoshiylar harakatini ko‘rgan evaraga Bosh Dada masala mohiyatini shunday tushuntiradi: “Hashshoshiylar o‘zlarini botinlar deb ataydilar. Bizning ilmimiz ularning botinidan nimasi bilan farq qiladi?.. Botinlarning quroli xanjar. Ular odam o‘ldirish, tahdid solishdan boshqa narsani bilishmaydi... fikr yuritish ular uchun yot tushuncha, ular faqat ijrochi, xolos. Ular faqat buyruqni bajarishni biladilar. Bizning qurolimiz esa so‘z bilan qalam. Dunyoda so‘zdan qudratli va



qiyamatli nima bor?” Mana shu birgina fikr yozuvchining ma’rifat va jaholat o’rtasidagi abadiy kurash falsafasini anglatadi, nazarimizda.

Asardagi asl g’oya TURKIY degan umummanfaat yo’lidagi kurashdir. Yozuvchi bu manfaatga yetishish yo’llarini badiiy obrazlarga singdiradi. Umummanfaati yo’lida kurashish uchun avvalo insonning MENi mavjud bo’lishi lozim. Asarda ana shu MEN tushunchasi Otabek Eldengiz obrazi orqali tasvir etilgan. Va bu MENni aslo manmanlik emas, o’zlikni anglash sifatida baholash mumkin. Inson menining shakllanishida uning kichik bir mamlakati – oilasi butun bo’lishi lozim. Oila butunligi va xotirjamligi ko’p muvaffaqiyatlarning asosi bo’lib xizmat qiladi. Otabek Eldengizning muvaffaqiyatlari yo’lida uning donishmand rafiqasi Mo’mina Xotun obrazi yonma-yon beriladi. Yozuvchi asarda Otabek Eldengizning xarakterini ochishda uchta obrazdan unumli foydalanadi: Bosh Dada–evara–Mo’mina Xotun. Evara beg’uborlik timsoli bo’lib, yozuvchi kelgusi avlodga murg’akligida qanday tarbiya bersang, kelajakda uning mevasini ko’rasan, degan g’oyani ilgari surmoqda. Ikkinchi obraz Mo’mina Xotun – avlod tozaligi, pokligiga ishora. Bosh Dada esa pok avlodning davomiyligi, uning buyuk e’tiqodini anglatadi. Bu buyuklikning butun dunyo tarixidagi o’rnini ko’rsatish uchun Shamsiddin Eldengizning Otabeklik darajasiga ko’tarilgan hayot yo’li tarixiy-adabiy nuqtayi nazaridan badiiy tasvir etiladi. Asarda badiiy to’qima bilan tarixiy haqiqat bir-birini to’ldirib, muallif g’oyasini ochishga xizmat qiladi.

Yozuvchi asarda xalq maqollari, rivoyat va afsonalaridan o’rni bilan unumli foydalanadi, “Dadaqurqut Kitobi”dan parchalar keltiradi. Fikrlarini asoslash, dalillash maqsadida qadim yozma yodgorliklarimizga murojaat qiladi. Masalan, asarning ellikdan ortiq o’rnida “Devonu lug’atit -turk”dan maqollar keltiradi. Jumladan,

“Yoqasiga to’kilgan ovqatni yalayotgan qo’lidagi chelakni yo’qotadi”, “O’zingga ehtiyot bo’l, qo’shningni o’g’ri tutma”, “Shoshgan qiz erga yolchimaydi”, “Non sindirildimi, bu yaxshilikdan darak, adovat izlashga o’rin qolmaydi” kabi maqol va bir qancha aforizmlarni uchratamiz. Keltirilgan har bir maqol nafaqat muallif fikrlarini dalillaydi, ayni paytda asarning badiiy estetik qimmatini oshiradi.

Adibning Vatan haqidagi tuyg’ulari asarda ayricha ifodalanadi. U Metixon haqidagi afsonani keltirarkan, o’z hislarini shu afsona qatiga singdiradi. Bu afsona Otabek Eldengizning buvisidan eshitgan yoshlik xotiralari orqali tasvirlanarkan, kitobxon anglaydiki, insonga Vatan tuyg’usi uning bolaligidan singdirilishi kerak. Qullik davridan butun boshli bir saltanatning asoschisi bo’lgan bu qahramonning yuragida birovlarining vataniga bosqinchilik qilish emas, bosqinchilardan Vatanni himoya qilish, turkiy xalqlar birligiga erishish maqsadi yotadi, ayni damda bu muallifning asarga singdirgan badiiy g’oyasi ekanligini ham anglash mushkul bo’lmaydi.

Asardagi e’tiborli jihatlardan yana biri Otabek Eldengizning do’sti Qo’rd Bo’z obrazidir. Qurd Bo’z Eldengizning beklaridan bo’lishi bilan birga, asarda sadoqat ramzi sifatida ham ko’rinadi. U do’stining har bir harakatidan sergak. “Otabek dasturxoniga ko’z yugurtirdi. Esiga qullik paytida non bilan chakki izlab yurganlari tushdi. Qo’lidagi bir burda nonni chakki turgan idishga cho’zdi... Chakkini juda sog’ingandim. Ganjada chakkini juda boplashadi deb eshitgandim. Tekshirib ko’ray dedim.

Dasturxon boshida kulishib oldilar. Faqat qullikning azob-u mashaqqatlarini ko’rib katta bo’lgan Qurd Bo’z Otabekning nimani nazarda tutganini anglab turardi” (102-b). Inson kim bo’lishidan qat’i nazar o’z o’tmishini unutmasligi





kerak. Keltirilgan iqtibosdan ziyrak o‘quvchi shuni sezadiki, adib komil inson uchun kerak bo‘lgan xarakter-xususiyatlarni turli detal va obrazlarga singdiradi. Saltanat sohibi bo‘lgan insonning chakkini sog‘inishi, uning bolaligi, o‘zligini sog‘inishiga ishora edi.

Asarning bir necha o‘rnida ilm-ma‘rifatning qudrati haqida so‘z boradi. Bosh Dadaning Nizomiy Ganjaviy bilan bo‘lgan suhbat ham o‘quvchi diqqatini tortadi. Nizomiy turkiy dunyoda o‘zining “Xamsa” asari bilan dovuq taratgan. Ammo Bosh Dadaning bundan ko‘ngli to‘lmaydi. Chunki bu asar forsiy tilda bitilgan. Yozuvchining TIL falsafasi haqidagi badiiy-estetik qarashlari mana shu o‘rinda ochiq ko‘rinadi. “Sen otobobolarimiz tilida yozmaysan. Senga necha marta aytdim. Onang senga turkiy tilda alla aytmaganmidi?” “Bularning hammasi yaxshi, lekin turkiy tilning she‘riy nafosatini anglamoqchi bo‘lsang, Dada Qo‘rqutni o‘qi, o‘rgan. U kitob misoli dengiz, tilning sofligini asraydi. Mana bu misrlarani eshit:

Kelinga ayron demadim men – Dada Qo‘rqut,  
Ayronga hayron demadim, men – Dada Qo‘rqut,

Ignani tikon demadim, men – Dada Qo‘rqut,  
Tikanni makon demadim, men – Dada Qo‘rqut.” (169 b.)

Anglashiladiki, Bosh Dadaning ta‘biricha, insonni inson, millatni millat qiladigan asosiy vosita bu Ona tilidir. Va ayni damda bu muallif qarashlari bilan uyg‘unlashadi.

“Otabek Eldengiz” tarixiy roman bo‘lishi bilan birga, unda ensiklopedik, falsafiy-ma‘rifiy asarlarga xos xususiyatlar ham mujassam. Shamsiddin Eldengizning shahzoda Arslonshohning mamlakat sultoni darajasiga ko‘tarilguncha davrdagi tarixiy voqelik katta bir hayot falsafasi asosiga qurilgan. Bu davrda Eldengiz goh oddiy qul, goh bosh oshpaz, goh,

sarkarda, goh otabek, goh saltanat sohibi bo‘lib tasvirlanadi. Eng muhimi, u – inson. Undagi insoniy tuyg‘ularining mujassamligini ko‘rsatish uchun adib Bosh Dada, Mo‘mina Xotun, Qurd Bo‘z obrazlaridan foydalangan bo‘lsa, uni takomillashtirish uchun Qur‘oni Karim, turkiy xalqlarning yozma yodgorliklaridan o‘rinli foydalanadi.

“Tarix takrorlanish xususiyatiga ega. O‘sha davrlardagi voqealar bugun ham takrorlanmoqda. Albatta, men bu shaxslarni tasvirlashga urinib ko‘rdim”, – deydi adib. Romanning yaratilishida yozuvchining tasvir va tasavvurlari aynan uyg‘un kelgan. Shamsiddin Eldengiz obrazi orqali o‘zi istagan turkiy qahramonni yarata olgan. Yozuvchi bu asarda milliy davlatchilik g‘oyasini barcha qahramonlari ruhiyatiga singdirib yuborgan.

**Muhokama va xulosa.** Tarixiy mavzudagi asarning asosiy maqsadi tarixiy haqiqatni aynan so‘zlab berishda emas, uni yozuvchiga xos tarzda talqin qilish, o‘tmishdagi voqelik bugun qanday ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatishdadir. Ijodkorning o‘tmishga munosabati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Uning tarixiy manbalarni o‘qishi, o‘rganishi, o‘tmishning makon va zamon manzaralarini chuqur his qilishi, anglashi, idrok etishi tufayli yuzaga keladi. Adib asardagi tarixiy hodisalarni o‘z fantaziyasi bilan to‘ldirib, muayyan g‘oyaviy maqsadga bo‘ysundirgan, natijada uning qahramonlari ko‘z o‘ngimizda tirik odamday gavdalanadi. Ayniqsa, Hasan Sabboh asos solgan hashshoshiylar tarafdorlarining ham bugunga qadar turli ko‘rinishlarda, o‘zlarini jannatga da‘vogar sifatida ko‘rsatib, musulmonlar o‘rtasida o‘zaro nizolarni keltirib chiqarayotgani yozuvchining o‘tmish va bugunni mantiqan bog‘lay olish mahoratini namoyish etadi. Asar nafaqat Ozarbayjon, balki barcha turkiy xalqlar tarixidan xabar beruvchi manba ekanligi bilan ham qimmatlidir.



www.isft.uz

“ISFT” ILMİY-USLUBİY JURNAL  
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/2-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Yunus O‘guz. Amir Temur: Yuksalish sari. 1-kitob. Dunyoning hokimi. 2- kitob. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013. – 588 b.
2. Min illik Azərbaycan tarixini romanlarında yaşadan yazıçı. Yunus Oğuz. <https://olaylar.az/news/sosial>
3. Расулмухамедова Д.Т. Истиклол даври ўзбек драматургиясида Амир Темур образини яратиш муаммолари. Филол. фан. ном. дис. автореф. – Т., 2000. - 21 б.
4. Yunus O‘guz. Otabek Eldengiz. – Toshkent, 2018. – 180 b.
5. Юсупова Г.А. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва теурийлар образининг бадий талқини. Филол. фан. ном. дис. автореф. – Т., 2005. – 26 б.
6. Хамраева М.А. Тарихий ҳақиқат ва бадий талқин (насрий асарларда Амир Темур образи): Филол. фан. ном. дис. автореф. – Т., 2010. – 22 б.